

## BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARIDA KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI.

*ADPI “Pedagogika va Psixologiya”  
kafedrası o‘qituvchisi O. Qodirova  
ADPI Texnologik ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi M. A. Tojidinova*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456795>

**Annotatsiya:** Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda bozor munosabatlari asosida moddiy ne’matlarning bevosita ishlab chiqaruvchisi, mamlakatdagi kasbiy va madaniy salohiyatning hosil qilini- shidagi sezilarli element bo‘lib hisoblanadigan yosh mutaxassis shaxsining shakllantirilishi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxsning shakllanganlik darajasi ham ishlab chiqarishning, ham ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish shart-sharoitlaridan biriga aylanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot talablari bilan mos holda mutaxassis shaxsiga ko‘p yo‘nalishli yo‘naltirilganlik va kasbiy tayyorgarlikka ko‘p darajalilik zarurdir. Maqolada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy o‘quv faoliyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, kasb, texnologik ta’lim, o‘quv faoliyati, maqsad, o‘qituvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya.

**Abstract** This article analyzes how in modern socio-economic conditions, the problem of the formation of a young specialist is solved. Which is a direct producer of material goods, based on market relations. Which is a significant element of the formation of the professional and cultural potential of the country. The degree of comprehensive formation of the personality of a young specialist becomes one of the conditions for the development of both industrial and social relations for the economy of any country. In accordance with the requirements of scientific and technical development, a specialist needs an interdisciplinary orientation and multi-level professional training. Therefore, the professional educational activity of future teachers of technological education is being considered.

**Keywords:** education, upbringing, profession, technological education, educational activity, goal, teacher, knowledge, skill, qualification, competence.

**Аннотация:** В данной статье, анализируется как в современных социально-экономических условиях, решается проблема формирования молодого специалиста. Который, является непосредственным производителем материальных благ, на основе рыночных отношений. Что, является значимым элементом формирования профессионального и культурного потенциала страны. Степень, всестороннего сформированная личности молодого специалиста, становится одним из условий развития как производственных, так и социальных отношений, для экономики любой страны. В соответствии, с требованиями научно-технического развития специалист, нуждается в междисциплинарной направленности и многоуровневой профессиональной подготовке. Поэтому, рассматривается, профессиональная образовательная деятельность будущих учителей технологического образования.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, профессия, технологическое образование, образовательная деятельность, цель, учитель, знания, умения, квалификация, компетентность.

Ma’lumki, ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy fazilatlarini shakllantirish, ta’lim oluvchilarda ta’limga bo‘lgan talabni faollashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini yuksak darajaga ko‘tarishdan iborat.

Jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning tub o‘zgarishlari texnologik ta’lim o‘qituvchilarning umumkasbiy tayyorgarligi bo‘yicha yangi tizim shakllantirilishi zaruratini belgilab beradi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning, ishlab chiqarish texnologiyalarining, ishlab chiqarishni tashkil etish metodlarining, texnikalarning paydo bo‘lishi texnologik ta’lim o‘qituvchilaridan nafaqat o‘quv jarayonini, balki mehnatning zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun maksimal bilim va aqliy qobiliyatlarga ega bo‘lishni ham talab qiladi. Mana shunga bog‘liq holda faoliyatning barcha sohalarida mutaxassislarni tayyorlash nafaqat o‘qitish mazmunini doimiy o‘zgartirib borish, balki bilimlarni berish usullarini, o‘qitish jarayonini tashkil etishning ham o‘zgartirilishi vazifasini kun tartibiga qo‘yadi. Shaxsning rivojlanganlik darajasi sezilarli ravishda kishining kasbiy-mehnat vazifalarini hal qilishga, mahsulдор predmetli faoliyatga obyektiv tayyorlanganligi va subyektiv tayyorligini aks ettiradigan kasbiy darajasi bilan tavsiflanadi.

Yangi texnologiyalarning joriy qilinishi va shunga mos holda mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha mehnatning intellektualizatsiyalashuvi darajasining ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda hozirgi zamon bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi mehnatining asosiy mazmuni nafaqat mehnat vositalariga bevosita ta’sir ko‘rsatish, balki texnologik jarayonni boshqarishdan iborat bo‘lib qolmoqda.

– Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Shu bois tadqiqot davomida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning bilim, ko‘nikma malaka va kompetensiyalarini zamonaviy talablarga mos ravishda shakllantirish, ta’limda innovatsion texnologiyalarni va yangicha yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim sifatini nazorat qilish muammosi bo‘yicha pedagog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilindi.

N.A. Muslimov tomonidan kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishi ilmiy muammo sifatida qaralib, uning nazariy-metodologik asoslari va tarkibiy tuzilmasi asoslab berilgan. Tizimli yondashuv texnologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi muammosini tadqiq qilishning umummilliy asosi sifatida tadqiq etilgan. Unda pedagogik va texnik bilimlarning integratsiyasi asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash, uning kasbiy-pedagogik faoliyatini modellashtirish, kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash jarayonini standartlashtirishning metodologik asoslari, kasbiy pedagogik shakllanganlik darajasini baholash metodikasi kabi masalalar bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan [1].

U.Sh. Begimqulov ta’limda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, zamonaviy innovatsion texnologiyalar muhitida ta’limni tashkil etish, ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammolari va istiqbollari, ta’lim muassasalarida yagona axborot-kommunikatsiya muhitni tashkil etishning metodik asoslarini tadqiq etgan, oliy ta’lim muassasalari uchun elektron o‘quv-metodik majmualar va ularni yaratishga bo‘lgan talablarni ishlab chiqqan [2].

D.O. Ximmataliev tomonidan kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi muammolari o‘rganilgan. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bosqichlarini tasniflash asosida nazariy, amaliy, ilmiy-tadqiqot tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha mobillik, refleksivlik, integrativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan [3].

Q.T. Olimovning ilmiy tadqiqot ishlarida maxsus fanlardan zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va amaliy asoslari, maxsus fanlarni modulli texnologiya asosida o‘qitishda

faol usullarni qo‘llash, maxsus fanlardan elektron darsliklarni yaratish tamoyillari, texnologiyasi hamda ularni ekspertizadan o‘tkazish metodikasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, kasbiy ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy- metodik tavsiyalar keltirilgan [4].

J.A. Hamidov tomonidan o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda, o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va amaliyotda qo‘llash algoritmini takomillashtirish asosida umumkasbiy fanlar bo‘yicha o‘quv axborotini ko‘rgazmali-obrazli, izchil mantiqiy tarzda havola etishni texnologiyalashtirish metodi, zamonaviy didaktik va metodik talablarni amalga oshiruvchi, umumkasbiy fanlar bo‘yicha o‘quv materiallarini havola etish shakllarini aks ettiruvchi hamda interfaol o‘quv muloqotini ta’minlovchi yaxlit tizim sifatida o‘qitishni modulli tuzilma asosida tashkil etish varianti yaratilgan[5].

Eng avvalo, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining o‘quv faoliyati va ishlab chiqarish amaliyoti mazmunini yoritib o‘tamiz. Talaba aqliy rivojlanishining real voqeligi oldindan ham, o‘zining yakuniy shaklida ham shakllanish bosqichlarining ketma-ketligida ajratib ko‘rsatilishi lozim. Rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyasida bu real voqelik mazmuniy umumlashtirish ko‘rinishida tuzilmalangan va u o‘z ichiga ideallashtirish (biron-bir empirik xilma-xillikning mohiyatini ajratib ko‘rsatish), uning shaklga kiritilishi (o‘zlashtirilayotgan madaniyat tilida nomlash), mohiyatning belgili ifodalanishini (modelni) variativ sharoitlarda boshqarish, konkretlashtirish (tushunchani xususiy predmetga nisbatan qo‘llash) alohida operatsiyalarning va, umuman, butun aqliy faollikning samaradorligini refleksiylash kabi aqliy harakatlarni oladi[6].

“O‘quv faoliyati – bu o‘quv harakatlarining umumlashtirilgan usullarini egallash va o‘quv vazifalarini bajarish jarayonida o‘zini o‘zi rivojlantirish bo‘yicha subyektning faoliyati”

O‘quv materiallarini o‘zlashtirishga va o‘quv vazifalarini bajarishga yo‘nal- tirilganlik; harakatlar va ilmiy tushunchalarning umumiy usullarini egallash; vazifa- larning yechilishiga olib keladigan harakatlarning umumiy usullari; faoliyat subyektidagi o‘zgarishlarning qonuniyatligi; ta’lim oluvchi xulq-atvori va psixik xossalarning o‘zgarishi.

O‘quv faoliyati ma’lum bir tuzilma va mazmunga ega bo‘ladi. O‘quv faoliyati mazmuni tahlili uning predmetini – bilimlarni o‘zlashtirish; harakatlarning umumlash- tirilgan usullarini egallash; o‘zlashtirilishi jarayonida ta’lim oluvchining o‘zi rivojlanib boradigan harakatlarning usullari va metodlarini, ularning dasturlari va algoritmlarini pishitib olishni aniqlashdan boshlanadi [7]. O‘quv faoliyati o‘zlashtirish bilan bir xilda emas, u subyektning o‘zining o‘zgarishiga yo‘naltiriladi; o‘zlashtirish esa uning subyektini- ning intellektual va shaxsiy o‘zgarishiga vositachilik qiladi, bu ham o‘z navbatida o‘quv faoliyati tarkibiga kiradi. O‘quv faoliyatining muvaffaqiyatligi ta’lim oluvchi qanchalik uning subyektiga aylana olishiga va undan qanday o‘zgarishlar paydo bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur jihatdan olib qaraganda gap bu yerda o‘quv faoliyatining ichki tomoni haqida boradi.

Ma’lumki, muassasalar texnologik jarayon bilan aniqlanadigan lavozimlar tuzilishi va shunga mos ravishda turli xil kasb va malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarni talab qiluvchi “ish o‘rinlari” tizimiga ega. Aslida muayyan kasb doirasida ichki mehnat taqsimoti amalga oshadi. Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi [8]. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor (masalan, o‘qituvchilik kasbida texnologik ta’lim o‘qituvchisi, biologiya o‘qituvchisi, tarix o‘qituvchisi va h.k.). Kasb – muayyan bilim va maxorat talab etadigan mehnat faoliyat (mashg‘ulot)ning turi [9]. Kasbga yanada aniqroq ta’rif berish mumkin: kasb - maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuasi

egallangan, odamning unga nisbatan jismoniy imkoniyati, aqliy qobiliyati va yuridik huquqlari ta’minlangan mehnat faoliyati turi [6].

Malaka (kvalifikatsiya) – shaxsning u yoki bu turdagi mehnat faoliyatiga tayyorgarlik darajasi bo‘lib, muayyan ish mehnat mahsuloti sifati va sonida eks etadigan turli mohirlik darajasida, boshqacha ifodalasak, quyi, o‘rta, oliy yoki ilmiy malaka darajasida bajarilishi mumkin [148]. Yanada aniq ifodalaydigan bo‘lsak, malaka - kichik mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasi bo‘lib, ma’lum ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar mavjudligidir.

Kasbiy tarbiya – kichik mutaxassislarni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash maqsadida jamiyatda shakllangan kasbiy ijtimoiy-tarixiy tajribani ularga maqsadga muvofiq o‘tkazish jarayoni. Kasbiy ijtimoiy-tarixiy tajriba deyilganda odamlarga ma’lum bo‘lgan barcha kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, tafakkur usullari, kasbiy-huquqiy me’yorlar, bir so‘z bilan aytganda, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan kasbiy- ma’naviy merosi tushuniladi. Kasbiy tarbiya bilan nafaqat pedagoglar, balki oila, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san’at, mehnat jamoalari, huquq-tartibot organlari ham shug‘ullanadilar [6].

Demak, kasbiy tarbiya, keng ma’noda, ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik jamoa va o‘qituvchilarning o‘quvchilarda ma’lum kasbiy sifatlarni, kasbiy mahorat asoslarini shakllantirish maqsadida ularga boshqaruvchi, maxsus tashkil etilgan va maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishdir. Kasbiy tarbiya, tor ma’noda, aniq kasbiy tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan kasbiy tarbiyaviy faoliyat, mazkur jarayoni va uning natijasidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy- metodik asoslari: ped.fan.dokt diss. – T., 2007. – B. 349.
2. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta’lim tiximiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari: ped.fan.dokt. ... dis. – T.: 2007. – B. 250.
3. Ximmataliev D.O. O‘quv-tarbiya jarayonida talabalarining kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish: Avtoref. Dis. ... ped.fan.nom. – T., 2003. – B. 50.
4. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Avtoref. dis. ... ped.fan.dok. – T.: 2005. – B. 44.
5. Hamidov J.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi / Monografiya. – T., “Sano-standart” nashriyoti. 2017. – B.160.
6. A.R. Xodjabaev, Sh.U. Kosimov Amaliy kasbiy ta’limni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi. – T.: O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2007. 1, 132
7. ШУ Касимов Система и содержание профессионального образования в колледжах- Молодой ученый, 2012.
- 8.